

"Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" milliy forumi bo'lib o'tdi

// 31.05.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoati-yosh-mutahassislari-milliy-forumi-bulib-utdi>

Kimyo sanoati yosh mutaxassislarning malaka va tajribalarini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiya jarayonlarini kuchaytirish, yosh xodimlarning jamoaviy ishlash, tashabbuskorligini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tarmog'ida har yili "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" milliy forumini o'tkazish an'anaga aylandi.

Joriy yilning 27-31-may kunlari "O'zkimyosanoat" AJ, tizim korxonalari hamda Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi bilan hamkorlikda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi "Kimyogar" o'romgohida "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" ilmiy-intellektual forumi bo'lib o'tdi.

Ushbu forumda "O'zkimyosanoat" AJ tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislari, D.I.Mendelev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahri filiali, Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamda Yangi O'zbekiston universiteti talabalari — jami 200 nafarga yaqin yosh mutaxassis ishtirok etdi.

"O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida 4829 nafar yosh ishchi-xodimlar mehnat faoliyatini olib boradi. Ulardan 2879 nafari erkak, 1950 nafari ayol. Bu kabi tadbirlar orqali yoshlar turli korxonalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislari bilan aloqalarni mustahkamlaydi, yosh mutaxassislarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Forum dasturi yoshlar uchun har tomonlama foydali va qiziqarli tadbirlarga boy bo'ldi. Dastlabki kuni yoshlar D.I.Mendelev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyasi universitetida bo'lib, unda sohaning bo'lajak mutaxassislari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

So'ngra ishtirokchilar Chirchiq kimyo-industrial texnoparkiga tashrif buyurishdi. Forum qatnashchilari texnoparkdagi ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita guvoh bo'ldilar.

Sog'lom turmush tarzini ommalashtirish maqsadida forumning 2-kunida ishtirokchi yigit-qizlar o'rtasida shaxmat bo'yicha musobaqa tashkil etildi. 32 nafar yosh ishtirokchi o'z korxona va OTMlari sharafiga himoya qilib, ularda faol qatnashdi.

Shuningdek, yoshlar o'rtasida keng ommalashgan "Zakovat" intellektual o'yini ham bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilardan tashkil topgan 22 ta jamoa "O'zkimyosanoat AJ rahbari kubogi" uchun bahs olib bordi.

"Maxam-Chirchiq" AJ xodimlari intellektual o'yinda zukkolik va jamoaviy ahillikni namoyon etib, 1-o'rinni zabt etdi. Toshkent kimyo texnologiya universiteti talabalaridan iborat jamoa faxrli 2-o'rinni egalladi. "Yangi O'zbekiston" universiteti jamoasi 3-o'ringa sazovor bo'ldi.

Shaxsiy o'sish, vaqtni boshqarish, motivatsiya va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ko'nikmalar – yosh mutaxassislari uchun zamon talabi. Shu maqsadda, malakali spikerlar ishtirokida seminar-trening tashkil etildi. Tadbir psixologik testlar va qiziqarli interaktiv o'yinlarga boy bo'lib, ishtirokchilarning bilimlarini oshirishga xizmat qildi.

"Eng yaxshi innovatsion g'oya" tanlovi – "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" forumining kulminatsion tadbiri. Tanlov yosh mutaxassislarning yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, sanoatda tejamkor texnologiyalarni samarali qo'llash, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiluvchi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Forum ishtirokchilariga ishlab chiqarish jarayonlaridagi muammoli vaziyatlarga innovatsion yechim taklif qilish vazifasi berildi. Uning doirasida yoshlar 20 ga yaqin innovatsion loyihalar taklif qilishdi.

Loyihalar energotejamkorligi, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini yengillashtiruvchi va modernizatsiya qiluvchi, yangi mahsulotlar hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo'ldi. "Eng yaxshi innovatsion g'oya" sifatida e'tirof etilgan loyihalarni korxonalarda amalda tatbiq etish rejalashtirilgan. Ishtirokchilar o'z loyihalarini soha ekspertlariga taqdim etishdi.

"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari Yevgeniy Korjikov bilan rahbar va yoshlar uchrashuvi tashkil etildi. Unda tarmoq korxonalari rahbarlari, D.I.Mendeleev nomidagi RKTU, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, "Yangi O'zbekiston" universiteti vakillari ham ishtirok etib, yoshlar bilan samimiy suhbat o'tkazildi. Do'stona va ko'tarinki kayfiyatda o'tgan uchrashuvda ishtirokchilarning takliflari va fikrlari tinglandi.

Milliy forumning tantanali yopilish marosimida "Zakovat" intellektual o'yini, shaxmat musobaqasi, "Eng yaxshi innovatsion g'oya" tanlovida g'olib bo'lgan ishtirokchilar munosib taqdirlandi. Ularga pul mukofotlari, diplom-sertifikatlar, qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati